QAHRAMON NAZIROV

# G‘ijjak sinfi darsligi

G‘ijjak sinfi darsligi




M 43 N-18

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

**QAHRAMON NAZIROV**

# G‘IJJAK SINFI DARSLIGI

*Oliy musiqa ta’limi muassasalari uchun*

«Musiqa» nashriyoti
Toshkent
2013

M 43 N-18

№ 16484

85.955(5O‘)
N 18

**Nazirov Qahramon**
G‘ijjak sinfi darsligi /Q.Nazirov. Oliy musiqa ta'limi muassasalari uchun darslik. – Toshkent: «Musiqa», 2013. 52 b.

**KBK: 85.955(5O‘)**

**UO‘K: 784(575.114)**

***Muallif:***

Qahramon NAZIROV – O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
«Xalq cholg‘ularida ijrochilik» kafedrasi professor v.b.

***Mas'ul muharrir:***

Saida QOSIMXO‘JAYEVA – san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent,
O‘zbekiston davlat konservatoriyasining ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori

***Taqrizchilar:***

Mustafo BAFOYEV – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san'at arbobi,
Abdulla Qodiriy nomidagi davlat mukofoti laureati,
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi «Bastakorlik kafedrasi» professori

Farhod OLIMOV – O‘zbekiston respublikasi san'at arbobi,
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi «Bastakorlik kafedrasi» professori

*Mazkur darslik O‘zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi*
*O‘zbekiston davlat konservatoriyasi*
*Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etildi*
*(Bayonnoma № 10. 4.12.2012)*

Ushbu darslik g‘ijjak cholg‘usida ijrochilik san'atini o‘zlashtirish uchun xizmat qiladi. Darslikda oliy musiqa ta'limi muassasalarida g‘ijjak sinfi ixtisosligi yo‘nalishida o‘rganiladigan nazariy va amaliy ma'lumotlar berilgan. G‘ijjak ijrochiligi texnikasiga oid ma'lumotlar, badiiy-musiqiy asarlar darslar ketma-ketligi tizimida tavsiya etilmoqda.

ISBN 978-9943-307-56-8

© «Musiqa» nashriyoti, 2013.
© Q.Nazirov, 2013.

# KIRISH

Yosh avlodni har tomonlama barkamol bo'lib kamolga yetishi uchun Respublikamiz Prezidenti va davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Yoshlarimiz ilm-fan, ixtirochilik, san'at, madaniyat, sport va axborot texnologiyalari sohasida katta yutuqlarga erishib, dunyoga tanilishida bu harakatlarning samarasi yaqqol ko'rinib turibdi. Albatta, bu borada o'quv muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan ustoz va murabbiylarning mehnatlari beqiyos. Ular yaratayotgan o'quv qo'llanma va darsliklar yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalab, ilm-fan taraqqiyoti yo'lida shaxdam odimlashi uchun katta omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi madaniyat va san'at sohasida ham bu jarayon izchillik bilan rivojlanmoqda. Xususan, o'zbek musiqa san'atining yuksalishi yo'lida ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunga kelib, «O'zbek xalq cholg'ulari» ta'lim yo'nalishi bo'yicha nay, chang, rubob-prima, qashqar rubobi, dutor, afg'on rubobi, doyra, g'ijjak, g'ijjak-alt sozlari uchun qator darslik va o'quv qo'llanmalar yaratildi.

E'tiboringizga havola etilayotgan «G'ijjak sinfi darsligi» oliy musiqa ta'limi muassasalari uchun mo'ljallangan. Darslik yordamida bo'lajak mutaxassislarning nazariy, ilmiy, amaliy bilimlarini o'stirish bilan bir qatorda ularning badiiy, estetik tarbiyasini va musiqiy-emotsional hissiyotlarini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish maqsad qilib qo'yildi.

Darslikda sozandaning ijrochilik texnikasini rivojlantirish, takomillashtirish uchun mo'ljallangan shtrixlarni o'zlashtirish to'g'risida ma'lumotlar, gammalar ustida ishlash uslublari, applikaturani to'g'ri tanlash, vibratsiya ko'nikmasi haqida ko'rsatmalar va musiqiy asarlar ustida ishlash darslar ketma-ketligi tizimi bo'yicha berildi. Talaba ijrochilik texnikasi yuqori darajada bo'lishi uchun doim dars tayyorlash jarayonini mazkur mashqlarni ijro etish bilan boshlashni odat qilishi lozim. Darslikda berilgan badiiy asarlar shakl jihatidan tahliliy, nazariy tomondan o'rganish va o'rgatish uslublari, ijro etilishida qo'llaniladigan zarur tavsiyalar bilan taqdim etilmoqda. Shular bilan bir qatorda, g'ijjakda o'zbek milliy kuylarini o'zlashtirish bo'yicha darslar berilgan. G'ijjak an'anaviy ijrochiligi bizga skripka ijro maktabidan kirib kelgan uslubdan farq qilinishi aniq ko'rsatilgan. O'zbek milliy kuylarini o'zlashtirish bo'yicha ijro ko'nikmalari, bezaklarning nota yozuvida ifodalanishi, ijrosi hamda o'zbek milliy kuylarida qo'llanishi zarur bo'lgan yangi alteratsiya belgilari haqida kerakli ma'lumotlar berilgan. Demak aytib o'tilganidek, musiqiy asarlarni har tomonlama sinchiklab, atroflicha, keng qamrovli usulda o'rganish aynan oliy musiqa ta'limi muassasalarining professor-o'qituvchilari va talabalarining oldiga qo'yilgan asosiy maqsad desak, to'g'ri bo'ladi.

## G'IJJAK SINFINING SHAKLLANISHI

G'ijjak sozi o'zbek xalqining sevimli cholg'ularidan bo'lib, ming yildan ziyodroq davr mobaynida insonlarga ma'naviy meros sifatida xizmat qilib kelmoqda. Uning kelib chiqishi X-XI asrlarga borib taqaladi. O'sha davrning mashhur faylasuf olimi Abu Nasr Forobiy ixtiro qilgan kamonli cholg'u «G'ipchak» deb nomlangan va ikki torli bo'lgan. G'ijjak Bobur zamonasiga kelib, uch torli cholg'u sifatida shakllandi. «Boburnoma»da aytilishicha, o'z davrining mashhur sozandasi Qulmuhammad Udiy g'ijjakka uchinchi torni taqib, yuqori ijrochilik mahoratini namoyish etgan[1]. XX asrning 36-yillaridan boshlab O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor Ashot Ivanovich Petrosyants rahbarligida o'zbek xalq cholg'ularini nota yozuvi asosidagi ijrochilikka moslandi. Bu o'z o'rnida o'zbek professional musiqa ijrochiligida muhim qadam bo'ldi. 1943-yilda maxsus eksperimental laboratoriya tashkil etildi va cholg'ularni takomillashtirish bo'yicha ishlarni davom ettirdi. Boshqa milliy sozlarimiz qatorida g'ijjak sozi ham muvaffaqiyat bilan takomillashtirildi, ya'ni rekonstruksiya qilindi[2]. G'ijjak oilasiga mansub g'ijjak-alt, g'ijjak-bas, g'ijjak-kontrabas cholg'ulari yaratildi. Bu sozlar orkestr, ansambl, kvartet, kvintet guruhlarida o'z o'rnini topdi. G'ijjak to'rt torli va torlar o'zaro (skripka sozlanishi kabi) kvinta, ya'ni besh tovush oralig'i bo'yicha sozlanadigan bo'ldi. Bu esa o'z o'rnida skripka ijrochiligi maktabidan foydalanib, jahon klassik kompozitorlarining murakkab asarlarini g'ijjakda ham o'rganib ijro etish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Takomillashgan g'ijjakda an'anaviy ijrochilik uchun ham qulayliklar ko'paydi. Demak, g'ijjak yangidan dunyoga keldi va uning imkoniyatlari ortdi. Nota yozuvi asosida g'ijjak ijrochiligi maktabi shakllandi va o'zining samarasini bera boshladi. Bu borada ustozlarning xizmatlari katta. Bulardan: g'ijjak maktabini yaratishda o'zining beqiyos hissasini qo'shgan, juda ko'p shogirdlarni tarbiyalagan, ustoz, O'zbekiston Davlat konservatoriyasining dotsenti Obid Xolmuhamedovdir. Qariyb 50 yildan ortiq davrdan beri yoshlarga ustozlik qilib kelayotgan, O'zbekiston Davlat konservatoriyasining professori, I Respublika tanlovining laureati Murod Toshmuhamedov, dotsent Abduvakil Umarov, I Respublika konkursining laureati, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Botir Rasulov, Respublika va Xalqaro konkurslarining laureati, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Shuhrat Yo'ldoshevlarning xizmatlari katta. Ayniqsa, Shuhrat Yo'ldoshev g'ijjakning texnik, dinamik va ovoz tembri jihatdan boy imkoniyatlarini ochib bera olgan edi. U nafaqat O'zbekiston, balki chet el sahnalarida ham o'zbek g'ijjagini ko'z-ko'z qilib, mutaxassislar va musiqa ixlosmandlari ko'z o'ngida skripka uchun yozilgan yirik shakldagi murakkab asarlarni bekam-u ko'st ijro etib, g'ijjak sozini, o'zbek sozandasi dovrug'ini dunyoga taratgan edi. Xalqimiz orasida Shuhrat Yo'ldoshev «O'zbek Paganinisi» taxallusini oldi. Hozirda ham shinavandalar uni shunday taxallus bilan eslaydilar.

Hozirgi kunda O'zbekiston davlat konservatoriyasi «Xalq cholg'ularida ijrochilik» kafedrasida g'ijjak ixtisosligi bo'yicha ustozlar bilan bir safda iqtidorli, yosh o'qituvchilar, Respublika tanlovi g'olibi Umid Eshonxo'jayev va Fayzulla Karimov faoliyat ko'rsatmoqdalar.

---

[1] **Toshmuhamedov M.** «Gijjak darsligi». Toshkent: «O'qituvchi», 1995, 3-bet.

[2] **А.И.Петросянц.** «Инструментоведение». Toshkent: G'afur G'ulom, 1990, 5-bet.

## G'IJJAK SINFINING TALAB VA VAZIFALARI

«G'ijjak sinfi» ta'lim yo'nalishida juda muhim va jiddiy talablar mavjud. Ma'lumki, g'ijjak tuzilishi jihatdan o'ziga hos murakkabliklarga ega. Cholg'u dastasi pardalarga ajratib qo'yilmagan. Aynan shu tufayli sozanda musiqa tovushi tonlarini toza, intonatsion jihatdan tiniq eshitish sifatiga ega bo'lishi, ijro paytida juda ehtiyotkorlik bilan chap qo'l barmoqlari cholg'u dastasida aniq joyini topishini nazorat qilishi lozim. Bunday ko'nikmalarni rivojlantirishda gammalar ijrosi va solfedjio, ya'ni toza, tiniq kuylash darslari bilan muntazam shug'ullanish yaxshi samara beradi. O'ng qo'lda kamonning turli harakatlari natijasida hosil bo'ladigan shtrixlarni aniq va mukammal o'zlashtirish lozim. Talabalar shtrixlar qanday belgilar bilan ifodalanishi, ijro etilishi va ular qanday ta'riflanishini juda yaxshi bilishlari kerak. Endigi navbatda bu ko'nikmalarni rivojlantirish, nota yozuvidagi yanada murakkabroq belgilarning mohiyatini o'rganib, nota matnini o'qish bo'yicha ham o'z mahoratlarini o'stirishlari lozim. Asarlarni yodlash ham asosiy vazifalardan hisoblanadi. Musiqiy xotiraning o'sishi va mustahkamlanishi uchun bu juda muhim ahamiyatga ega. Talabalar turli xarakter, shakl va janrdagi asarlarni yodlashga harakat qilishlari kerak. Avval matn bo'yicha puxta o'rganib, keyin asarning shaklan tuzilishini tahlil qilgan holda qismlarga va jumlalarga ajratib yodlash yaxshi natija beradi.

Postanovka-ijro paytida cholg'uni to'g'ri ushlab harakat qilish holatidir. Ba'zan sozandalarda shakllangan postanovkada kamchilik va xatolar uchraydi. O'ng yoki chap qo'l noto'g'ri harakatga o'rgangan holatlari ham kuzatiladi. Buning sababi talabalar turli maktablarda tarbiyalanib kelganliklaridadir. To'g'ri, ba'zan oldingi shakllangan postanovkani to'g'rilashga harakat qilish salbiy oqibatlarini ko'rsatishi mumkin. Ammo, tuzatish mumkin bo'lgan xato va kamchiliklar ham uchraydi. Albatta bunday xatolarni kechiktirmay to'g'rilash zarur. Aytaylik, cholg'u dastasida chap qo'l barmoqlari noto'g'ri harakat qilmoqda. Aslida chap qo'l cholg'u dastasini to'g'ri ushlab harakat qilishida boshmaldoq 1- barmoq qarshisida, kaft esa dastaga yopishmagan holda bo'lishi kerak. Dastaga barmoqlar yumaloq joyi (yostiqchasi) bilan bosiladi. Keyingi va yanada yuqoriroq pozitsiyalarda afsuski boshmaldoq dastlabki pozitsiya holatida qolib, dasta bo'ylab harakat qiladigan 1-, 2-, 3-, 4-barmoqlarning erkin harakatiga jiddiy xalal beradi. Erkin harakat paydo bo'lishi uchun qaysi pozitsiya joylashuvi bo'lishidan qat'iy nazar, boshmaldoq 1- barmoq qarshisida va doim shu holatdan orqada qolmay harakatlanishi kerak.

To'g'ri







Noto‘g‘ri



O‘ng qo‘l faoliyatida ham noto‘g‘ri postanovka alomatlari, masalan, qo‘lning yelka va bilak qismlari ko‘tarilib yoki pastga tushib ketish holatlari kuzatilishi mumkin. Ijro paytidagi tordan torga o‘tishlarda, yengil shtrixlarni chalish vaqtida bu hol o‘z salbiy tomonlarini ko‘rsatadi.

To‘g‘ri



Noto‘g‘ri



Aytmoqchimizki, bunday to'g'rilash mumkin bo'lgan xatolarni tuzatib, albatta yaxshi natijalarga erishish mumkin.

## DASTLABKI MASHG'ULOT

Dastlabki mashg'ulot o'qituvchining talaba bilan tanishuvi va suhbati bilan boshlanadi. Bundan maqsad, o'qituvchi yangi talaba qaysi maktab ta'limida tarbiyalanganini, uning qanday nazariy va amaliy ko'rsatkichlarga ega ekanligini yaqindan bilish. Shular bilan birga, talaba shu davrgacha qanaqa mashq, gamma, etudlarni o'zlashtirganini, qanday shakl va janrlarda kuylar o'rganganligini so'rab, ijro mahorati darajasini albatta eshitib ko'rish kerak. Shunga qarab o'qish jarayonini boshlash lozim. Demak, talabaning bilimiga qarab o'qituvchi tomonidan ijrochilik texnikasiga oid topshiriq va badiiy asarlar beriladi. Talaba berilgan vazifalarni qanday o'zlashtirayotgani nazorat qilinadi. Shu yo'sinda navbatma-navbat vazifalar murakkabligi o'sib boradi.

## 1- DARS. SHTRIXLAR

Kamonning torlar ustidagi turli hil harakatlari natijasida rang-barang tovushlar hosil qilinadi. Bular bir so'z bilan **shtrix** deb ataladi. Shtrixlar har xil bo'ladi . Ular kamonni tordan ko'tarmay va sakratib ijro etiladigan guruhlarga ajratiladi.

## KAMONNI TORDAN KO'TARMAY IJRO ETILADIGAN SHTRIXLAR

***Detashe*** – boshlang'ich va asosiy shtrixdir. Bu shtrix tovushlarning har birini alohida, kamonni pastga va yuqoriga yurgizish orqali hosil qilinadi.



Kamon harakati pastdan yuqoriga yoki yuqoridan pastga almashayotganida tovushlar uzilmasligi, ravon va tekis ulanishi lozim. Detashe asarning xarakteri, sur'ati, dinamikasiga qarab kamonning butun uzunligi bilan hamda pastki, o'rta va yuqori qismlarida ham qo'llanadi.

***Legato*** – ikki va undan ortiq tovushlarni bir tomonga, ya'ni kamonni pastga yoki yuqoriga harakati bo'yicha ulab ijro etishdir. Bu shtrix orqali g'ijjakning mayin, nafis, kuychanlik sifatlari yaqqol ko'rinadi. Nechta tovush kamon harakatining bir tomoniga ijro etilishiga qarab, kamon ham teng taqsimlanishi kerak.



Legato bir torda va bir necha torlarda ijro etilishi mumkin, ya'ni tordan torga o'tish yo'li bilan. Bu shtrix bir necha torlarda ijro etilganida, navbatdagi torga o'tishdan oldin kamonni o'sha torga asta yaqinlashtiriladi. Shunda tovushlarning tekisligi, mayinligi va yumshoqligi saqlab qolinadi. O'z o'rnida bu ko'nikmalarni o'zlashtirish lozim.



Liga chizig'i bilan birlashtirilgan notalarning ustiga yoki ostiga chiziqchalar qo'yilgan bo'lsa, unda shu chiziqchalar qo'yilgan notalar kamonni pastga yo yuqoriga yo'nalishi bo'yicha yengil to'xtatib, ajratib ijro etiladi. Bu shtrix ***portato*** (italyancha – ta'kidlash) deyiladi.



*Martele* shtrixi aksent bilan boshlab, uzib chalinadi. Kamon shaxdam, tez tortiladi, keskin to'xtatiladi va o'zining cho'zimini teng yarmi hisobida pauza hosil qilinishi shart. Martele ▾ belgisi bilan ifodalanadi.

yozilishi ijro etilishi



Martele kamonning hamma qismida, ko'proq yuqori qismida ijro etiladi.

*Markato* aksent qo'yilgan detashe bo'lib, urg'u bilan boshlanadi, tugatilishida tovush pasayadi, lekin to'xtatilmaydi.



*Stakkato* — ikki va undan ortiq tovushlarni kamonning bir tomonga yo'nalishi bo'yicha uzib-uzib, ammo tordan ko'tarmasdan ijro etish. Stakkato shtrixi asosan, ko'proq hollarda kamonning yuqoriga yo'nalishida qo'llanadi.



*Viotti* shtrixi italyan kompozitori, skripkachi Viotti nomi bilan bog'liqligining sababi shundaki, u o'z asarlarida shu shtrixni ko'p qo'llagan. Avval birinchi tovush alohida, keyin kamonni har bir yo'nalishi bo'yicha ikkitadan notalar chalinadi. Bunda ikkitadan chalinadigan notalarning birinchisi kuchsiz, ikkinchisi kuchliroq, bo'rttirib ijro etiladi. Bu holat tovush cho'zimlarining sinkopa, ya'ni kuchli hissa kuchsiz hissaga o'tishidek tarzda ifodalanadi.



**Savol va topshiriqlar:**

1. Shtrix deganda nimalar tushuniladi?
2. Shtrixlar qanday guruhlarga ajratiladi?
3. O'rganilgan shtrixlarni ta'riflab bering.

## 2- DARS. SAKRATIB CHALINADIGAN SHTRIXLAR

*Spikkato* shtrixi tovushlar kamonning alohida, qisqa-qisqa pastga va yuqoriga sakratib amalga oshiriladigan harakatidan hosil bo'ladi. Spikkato o'ng qo'l panjasining (kistining) yengil harakati orqali ijro etiladi. Yozuvda notalarning ustiga nuqta bilan belgilanadi, ammo liga chizig'i bilan birlashtirilmaydi. Bu shtrixni ijro etishda kamonning ayni kerak joyidan foydalanish tavsiya etiladi. Kamonning boshlanish (ya'ni kolodka) qismidan o'rta qismiga (ammo teng o'rta qismi emas) yaqin joyida ijro etilsa shtrix o'z sifatini to'liq ko'rsatadi. Chunki shu joyda kamonning taranglik xususiyati ko'proq.



*Stakkato Volant* – uchar stakkato – xuddi oddiy stakkatodek yoziladi. Ba'zan notalar ustiga yoki ostiga so'z bilan *stakkato volant* deb yoziladi, yozilmagan holda esa asarning sur'ati, xarakteriga qarab ham qo'llanadi. Oddiy stakkato kamonni tordan ko'tarmay, bir tomonga uzib- uzib ijro etilsa, uchar stakkato kamonni bir tomonga sakratib ijro etiladi. Demak, bir nechta spikkatolarni kamonning yuqoriga yo'nalishi bo'yicha sakratib chalishdir. Tezkor sur'atli, sho'xchan, zavqli asarlarda ko'p qo'llanadi.

A.Xachaturyan
Konsert, III qism



*Sautille* – sotiye spikkato shtrixining bir turi. Bu shtrix o'ng qo'l panjasining pastga va yuqoriga tezkor harakati natijasida kamonning taranglik markazi orqali amalga oshiriladi. Ikkitalik spikkato deyilsa ham bo'ladi, chunki bu shtrixda tovushlar juft beriladi. Harakat tezligi va kamon tarangligi natijasida kamon tordan mexanik tarzda qaytib sakrashi hosil bo'lishi sababli sotiye shtrixi ijrosida tezkorlik qulayroq amalga oshiriladi. Spikkato shtrixi ijrosida esa, kamon sozandaning o'ng qo'l panjasi yordamida har gal yengillik bilan torga maxsus harakat orqali tashlash va ko'tarib olishni boshqarishi kerakligi sababli bir muncha murakkabroq. Yana bir tomoni sotiye shtrixida tovushlar ikkitadan ijro etilishi sababli chap qo'l barmoqlari tezkorlik borasida unchalik qiyinchilikka duch kelmaydi, spikkato shtrixining murakkabligi esa chap qo'l barmoqlari har bir tovushni yakka, dona-dona, aniq, tezkor harakatda bajarishidadir. Shuning uchun tezkorlik borasida spikkato sotiye shtrixichalik emas.

K.Bom
To'xtovsiz harakat

**Allegro**



**Rikoshet** – rikoshet – kamonni o'z og'irligi bilan yuqoridan torga tashlanadi, hali inersiya kuchi tugamay turib davomiga bir nechta tovushlar bir tomonga sakratib chalinadi. Asosan bu shtrix kamonni pastga yo'nalishi bo'yicha qo'llanadi. Ko'proq tezkor, yengil, zavqli xarakterdagi asarlarda uchraydi.

A.Xachaturyan
Uzun-Dara



**Shular bilan bir qatorda quyidagi shtrixlar ham qo'llanadi.**

*Tremolo* shtrixi o'ng qo'l panjasining erkin, tezkor harakati orqali kamonda pastga va tepaga navbatma-navbat ijro etishdir. Tremolo asarlarning ba'zi lavhalarida va asosan jo'r bo'lish hollarida uchraydi.



Chap qo'lda amalga oshiriladigan tremolo – o'ng qo'lda ijro etiladigan tremolodan farqli o'laroq, chap qo'l barmoqlari orqali bajariladi. Bitta torda (ikki yonma-yon emas) ikki har xil balandlikdagi tovushlarni ketma-ket tezkorlik bilan ijro etish. Bu uslub ham ko'proq jo'r bo'lish

hollarida ishlatiladi. Aytaylik, orkestr ijrochiligida asarning asosiy kuy matnini qaysidir cholg'ular guruhi ijro etyapti, uyg'unlik hamohangligi (garmoniya) tovushlarini cho'zib ushlab turilishi kabi hollarda qo'llanadi.




Yana bir shtrix ***Coll legno*** deb ataladi. Bu shtrix asosan kamonning yog'och qismi bilan va qisman yoli (qili) ishtirokida torda harakatlantirib ijro etiladi. Yozuvda *Col legno* so'zi bilan belgilanadi va o'sha yerdan boshlab, to *arco* belgisi yozilgan joygacha kamon yog'ochi bilan chalinadi.




**Savol va topshiriqlar:**
1. Sakratib ijro etiladigan shtrixlarni sanab bering.
2. Shtrixlarning belgisi, yozilishi va ijrosi haqida ma'lumot bering.
3. Tremolo shtrixidan qaysilarini bilasiz?

## 3- DARS. GAMMALAR USTIDA ISHLASH

Gammalar va arpedjiolar ijrochilik texnikasini o'zlashtirishda asosiy, shu bilan birga, juda muhim o'rin tutadi. Ijro mahoratining takomillashib borishi uchun sozanda muntazam ravishda gammalar va arpedjiolar ustida ishlashi kerak. Bu mashg'ulotlar chap qo'l barmoqlarining cholg'u dastasida yengil harakatlanishini, tezkorligini qoidaviy tarzda rivojlanib borishida va o'ng qo'l harakatlari orqali turli shtrixlarni yaxshi o'zlashtirishda albatta o'z samarasini beradi. Sozanda gammalar va arpedjiolar ustida ishlar ekan, avvalo, tovush hosil qilish sifatini, intonatsiya tozaligini nazorat qilib, uni borgan sari takomillashishiga erishmog'i lozim. Shu bilan bir qatorda, metroritmik aniqlikka erishish uchun o'zi ham turli ritmik variantlar tanlab, mashqlar bajarishi tavsiya etiladi. Yana, gammalarni o'rganishda chap qo'l barmoqlari vibratsiya (tebratish) harakatini bajarishi kerak emas. G'ijjak dastasida aytaylik, biron bir barmoq joyini topmadi, u holatda barmoqning vibratsiya harakati bunga yordam berishi mumkin. Asosiy maqsad esa vibratsiya harakatini qo'llamasdan, intonatsiya tozaligini to'g'ri bajara olish va g'ijjak dastasida barmoqlar joyini aniq topa olishidadir. Albatta, bu jarayonda sozanda har bir tovushni eshitib, nazorat qilib borishi shart. Shu sababdan vibratsiya ko'nikmasini qo'llamasdan tovush tozaligiga erishish talab qilinadi.

Oliy musiqa ta'limi muassasasining talabalari uchun uch, to'rt oktava hajmida gamma va arpedjiolarni turli shtrixlarda o'rganib o'zlashtirish tavsiya etiladi. Gammalar avval detashe shtrixida, kamonni pastga va yuqoriga yo'naltirib, to'liq ovozda choraktalik nota cho'zimi hisobida mashq qilinadi. So'ng legato shtrixida ikkita sakkiztalik, to'rtta o'n oltitalik, sakkizta, o'n ikkita va yigirma to'rtta o'n oltitalik notalarni kamonning bir tomon yo'nalishi bo'yicha teng taqsimlab mashq qilinadi. E'tibor bering, gammalar yuqoriga yo'nalishda yigirma to'rtta, orqaga qaytishda ham yigirma to'rtta notadan iborat bo'lyapti. Aslida, uch oktava hajmidagi gammani hisoblansa, yuqoriga yo'nalishda yigirma ikkita, eng tepadagi asosiy nota ikki marta, chunki orqaga qaytishda ham asosiy notadan boshlab ijro etilishi sababli shuncha notalar hosil bo'ladi. Aynan legato shtrixining ijro etish mashqida hosil bo'layotgan yigirma ikkita nota kamon taqsimlashda noqulaylik keltirib chiqarishini nazarda tutgan holda uch oktavali gammalarning yuqoriga yo'nalishining boshlanishida va orqaga qaytishining yakunida ikkitadan nota qo'shib, jami qirq sakkizta qilib, taqsimlashga qulay tarzda berilgan. So'ng stakkato, martle, spikkato va hokazo o'rganilgan shtrixlarni hammasini navbatma-navbat qo'llab, gammalar mashqi bilan shug'ullanish davom ettiriladi. Qarang, bir tomondan cholg'u dastasida barmoqlar joylashishini, intonatsiya tozaligini o'zlashtirish o'sib borsa, yana bir tomondan kamon harakati orqali shtrixlar ijrosi

mustahkamlanib boradi. Shuningdek, talabalar major va minor gammalarining qanday tuzilishi hamda sadolanishini yaxshi bilishlari lozim.

***Eslatma:*** **Major** – 1ton, 1ton, yarim ton, 1ton, 1ton, 1ton, yarim ton.
Uch tovushlik – katta tersiya+kichik tersiya.
Kvartsekstakkord – toza kvarta+katta tersiya.
**Minor** – 1ton, yarim ton, 1ton, 1ton, yarim ton, 1ton, 1ton.
Uch tovushlik – kichik tersiya+katta tersiya.
Kvartsekstakkord – toza kvarta+kichik tersiya

Do major



Lya minor



Minor gammalarining garmonik va melodik turlarini ham o‘zlashtirish tavsiya etiladi. Bunda o‘zgaradigan pog‘onalarga tegishli alteratsiya belgilarini qo‘yib mashq qilish talabaning o‘zidan lozim.

O‘quv jarayoni davomida gammalar kvinta aylanmasi tartibi bo‘yicha, shuningdek, talaba o‘rganayotgan asarlarning tovush qatoriga monand ravishda tanlab ham o‘rganiladi. Bu esa o‘z o‘rnida talaba o‘rganayotgan asarlarning intonatsion tozaligini yanada mustahkam bo‘lishiga katta foyda beradi. Gammalarni o‘rganishda A. G. Grigoryanning bir necha marta Moskvaning «Музыка» nashriyoti tomonidan chop etilgan «Гаммы и арпеджио» dlya skripki, A.G.Grigoryan – «Skripka uchun gammalar va arpedjiolar» – Qahramon Nazirov tarjimasi, T., «Musiqa», 2011-y., Qahramon Nazirov – oliy musiqa ta’limi muassasalari uchun «G‘ijjak» T., «Musiqa» 2012-y. kabi o‘quv qo‘llanmalardan foydalanish tavsiya etiladi.

**Savol va topshiriqlar:**

1. Gammalar sozandaning ijro mahorati o‘sishida qanday o‘rin tutadi?
2. Nima uchun gammalar ijrosi bilan shug‘ullanishda vibratsiya ko‘nikmasi qo‘llanmaydi?
3. Major va minor gammalarining tuzilishidagi farqni ayting va kuylang.
4. Nima uchun uch oktavali gammalarga notalar qo‘shib berilgan?

## 4- DARS. APPLIKATURANI TO'G'RI TANLASH

*Applikatura* so'zi — nemischa applicatur, lotincha applico — qo'ymoq, bosmoq ma'nolarini anglatadi. Musiqa ijrochiligida cholg'u dastasiga chap qo'l barmoqlarini qo'yish tartibidir. Applikaturani to'g'ri tanlash usullari sozandaga bir tomondan qulaylik, asarning texnik jihatdan qiyin parchalarini o'zlashtirishda va ijro etishda yengillik yaratib bersa, yana bir tomondan o'ng qo'lning tordan torga o'tavermay, yoki ortiqcha harakat qilmasdan o'sha vaziyatdan erkin chiqishini ta'minlaydi. Qolaversa, to'g'ri va qulay applikatura sozanda ijrosining ko'rinishiga professional chiroy beradi.




Applikatura to'g'ri qo'yilishining yana muhim tomonlari shundaki, aytaylik, yozuvda asarning boshlanish jumlalari (frazalari) yoki keyingi jumlalari uchun barmoqlar qo'yilgan bo'ladi, ammo hamma notalar ustiga emas. Bunday holatlarda barmoqlarning qo'yilish navbatini qanday davom etishiga sozandada shubha yoki ikkilanish paydo bo'ladi. Aslida bu vaziyat oddiy. Jumla boshlanishida aniqlab qo'yilgan pozitsiyaga daxldor barmoqqa nisbatan keyingi barmoqlar ketma-ketligi to barmoqlarning o'zgarishi zarur vaziyat kelgunga qadar davom etaveradi. Albatta bu vaziyatda barmoq o'zgarishi yozib ko'rsatiladi.




Qarang, agar uchinchi taktda *do* notasiga ikkinchi barmoq yozilmaganida, oldingi, ya'ni uchinchi pozitsiyadagi barmoqlar joylashishi davom etavergan bo'lar edi. Shular bilan birga ikki xil, ba'zida uch xil variantlarda applikatura berish hollari ham kuzatiladi. Yozuvda notalar ustida birinchi, ostida ikkinchi, uchinchi variant qavs ichida berilishi ham mumkin. Bunday vaziyatlarda sozanda ustki yoki pastki applikaturada ko'rsatilgan barmoqlar ketma-ketligini o'zi uchun qulay variantini tanlab, bir-biriga aralashtirmasdan bajarishi lozim.

**Savol va topshiriqlar:**
1. Applikatura degani nima?
2. Qachon barmoqlar ketma-ketligi o'zgaradi?
3. Applikatura variantlari qanday tanlanadi?

## 5- DARS. VIBRATSIYA

Kamonli cholg'ularda tovush sadolanishini go'zal, yoqimli, ta'sirchan bo'lishiga xizmat qiladigan asosiy ko'nikmalardan biri *vibratsiya*dir. G'ijjak ijrochiligida ham vibratsiya asarning badiiyligini, kuychanligini, his-hayajonini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Vibratsiya u yoki bu barmoq tor ustida biron bir pardani olgan holda, uning tonini galma-gal biroz ko'tarib yo pasaytirib, o'z joyida tebratishi natijasida amalga oshiriladi. Aytaylik, *lya* torida birinchi oktava *si* notasini olib, masalan, birinchi barmoq bilan asta-sekin g'ijjak dastasini vertikal holati bo'yicha tor ustida asosiy xarrak va yuqori xarrak tomonlari bo'ylab barmoqni tebratib mashq qilishni boshlaymiz. O'rganish sekin, shoshmasdan, vazmin harakatda bo'lishi kerak. Mashqlarni sadolanayotgan tovushlarni eshitib, nazorat qilgan holda asta, muloyimlik bilan davom ettiramiz. Avval boshlang'ich pozitsiyalarda, so'ng III-, IV- va yuqori pozitsiyalarda navbatma-navbat o'rganiladi. Chap qo'l barmoqlarining har biri vibratsiya harakatini bajaradi. Bu borada yuqorida aytilganidek, shoshmasdan, vaqtidan oldin tezlashtirmasdan o'rganish tavsiya etiladi. Aks holda, yoqimsiz, titroqi ovozda

tebratish hosil bo'lib, salbiy oqibatlarini ko'rsatishi mumkin. Mashqlar davomida barmoqlar ko'nikma hosil qilganidan keyin, vibratsiya harakatining tezligi ortadi. Asarlar ijrosida vibratsiya kuyning sur'ati, hayajoni, xarakteriga qarab qo'llanadi. Vibratsiya ayniqsa kuychan, kantilena xarakteridagi asarlarda muhim o'rin tutadi. Faraz qiling, biror-bir alla, so'zsiz qo'shiq yoki asarning kuychan qismi ijrosida vibratsiya ko'nikmasi qo'llanmasa, u holda kuy beta'sir, yoqimsiz, va jonsiz xarakterda sadolanadi. Bu albatta hech qaysi tinglovchiga yoqmaydi. Shuning uchun vibratsiya kuyning qoni va joni hisoblanadi. Kuyni yoqimli sadolantirib, eshituvchiga ma'qul bo'lishida vibratsiyaning muhim o'rnini doimo yodda tutish lozim.

**Savol va topshiriqlar:**
1. Vibratsiya harakati qanday hosil bo'lar ekan?
2. Mashq jarayonini ko'rsatib bering.
3. Vibratsiya ko'nikmasining ahamiyatini ta'riflab bering.

## 6- DARS. MUSIQIY ASARLAR USTIDA ISHLASH

O'qituvchi va talabalar musiqiy asarlarni chuqurroq o'rganishda asar mualliflari haqida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lishga harakat qilishlari lozim. Binobarin, bastakor, kompozitor qaysi davrda yashab ijod qilgan, uning millati kim, qanday janr va shakllarda asarlar yaratganini yaxshi bilish maqsadga muvofiq. Taniqli o'zbek kompozitori Sayfi Jalilning g'ijjak va o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun yozilgan konsertini tahliliy hamda uslubiy tomondan chuqur o'rganish maqsadida e'tiboringizga havola etiladi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Hamza nomidagi davlat mukofoti laureati, professor Sayfi Jalilning ijodi ko'p qirrali bo'lib, o'zining badiiyligi bilan alohida ajralib turadi. U doim o'z xalqining madaniy merosiga chuqur xurmatda bo'lib, xalq musiqasining ohang hamda usullarining tuzilishi asosida ijod qildi, turli janr va shakllarda ko'plab asarlar yozdi. «Samarqandnoma» simfoniyasi, kamer orkestri uchun «2 — Lirik simfoniya», «Toshkent manzaralari» simfonik syuitasi, «Majnun monologi» vokal-simfonik poemasi, violonchel uchun «Konsert», skripka va simfonik orkestr uchun «Konsert», tanbur uchun «Qalbimda» kuyi hamda o'zbek xalq cholg'ulari ansambli uchun qator kuy va qo'shiqlar yaratdi. U 1981-yilda g'ijjak va o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun konsert yozdi. «Konsert» 1982-yili «O'zbekiston kompozitorlarining yangi asarlarini tinglash» konsertida birinchi marta ijro etildi. Konsertning birinchi ijrochisi O'zbek xalq cholg'ularida yosh ijrochilarining III Respublika konkursi laureati Jo'ra Saidov. U o'z ijro talqinida asarning milliy ranglarini ochib bera oldi.

Sayfi Jalilning konserti xarakter sifatlarining qarama- qarshiligi va aniq his-hayajonli tomonlari bilan kishini jalb qiladi. Muallif asarda aynan xalq kuylarini qo'llamagan bo'lsa-da, ammo uning original temalari o'zbek folklori uslubidan chuqur darak berayotganini guvohi bo'lamiz. Ayniqsa, buni konsertning uchinchi qismidagi o'zbek xalq usullari, birinchi va ikkinchi qismidagi kuychan hamda garmonik ishlanmalar asar rang-barangligini kuchaytirishida ko'ramiz.

Ustoz Sayfi Jalil juda iste'dodli va taniqli g'ijjakchi bo'lgan. Shuning uchun g'ijjakning boy imkoniyatlari, turli nozik sifatlari u tomonidan ustalik bilan ochib berilgan. Bularni shtrixlar, qo'sh notalar, dinamika, pitssikato uslubi va cholg'uning kuychanlik sifatlarini mahorat bilan qo'llanishida ko'rishimiz mumkin. Masalan, asarning ikkinchi qismida cholg'uning hamma registrlari tabiiy, sodda va chiroyli sadolanadi. Konsertning o'zgachaligi shundaki, muallif cholg'u konsertining klassik, an'anaviy shakliga xalqona milliylik ruhini uyg'unlashtira olganidadir.

### Konsert janrining shakllanishi

*Konsert* so'zi italyan tilida kelishmoq, birgalikda ma'nolarini anglatsa, lotin lug'atidagi konsertare so'zi musobaqalashmoq tushunchalarini bildiradi. Balki shu ikkala tushunchalar, bir tomondan yakkanavoz sozandaning orkestr bilan birgaligi, boshqa tomondan ular o'rtasidagi

bellashuv janrning o'ziga xosligini bildirsa, ajab emas. Konsert – yakkanavoz cholg'u va orkestr jo'rligi uchun yirik shakldagi asar. Konsert XVII asrda yashab ijod qilgan buyuk italyan skripkachisi va kompozitori Korelli ijodida aniq shaklini topdi. Korelli ansambl va kichikroq orkestrlar uchun «Koncerto grosso» (katta konsertlar) deb nomlangan konsertlar yozgan. Bunday konsertlar hali yakkanavoz cholg'u ijrosi uchun emas edi. Gendel ham shu yo'sinda konsertlar yozgan. Skripka va orkestr uchun konsert janrining yaratilishi XVIII asrda yashab, ijod qilgan buyuk italyan skripkachisi, kompozitor A.Vivaldining xizmati. Vivaldi davridan boshlab, asosiy kuyning ijrosi skripkaga topshirildi. Shunday qilib ikki chetdagi (ya'ni birinchi va uchinchi) qismlari tez, o'rta qismi esa sekin ijro etiladigan uch qismli konsert shakli dunyoga keldi. Bunday shaklda I. S. Bax konsertlar yozgan.

Konsert janrining keyingi rivoji Motsart ijodining davriga to'g'ri keladi. Motsart imkon qadar mohirona passajlar bilan to'ldirib, asosiy rolni yakkanavoz cholg'uga berdi.

XIX asrga kelib, romantizm davri kompozitorlarining ijodida konsert janri yanada mukammallashdi. N. Paganini, G. Venyavskiy, F.Mendelson ijodlarida yakkanavoz skripka cholg'usining juda murakkab, yangi imkoniyatlari shakllandi. Bir qismli konsertlarning yaratilishi ham romantik kompozitorlar ijodiga mansub.

O'zbekistonda konsert janrida asarlar XX asrning 40 - yillarida G. Mushel, E. Brusilovskiy I. Akbarovlar tomonidan yaratildi. G'ijjak uchun original asarlar o'tgan asrning 60- yillaridan keyin yaratila boshladi. Konsert janrida asarlar kam bo'lsa-da, ammo yaratildi. Jumladan, A.Berlin, S.Jalil, T.Azimov yozgan konsertlarni keltirish mumkin. Hozirgi kunda Mustafo Bafoev g'ijjak uchun ko'p asarlar yaratmoqda. Shu o'rinda uning g'ijjak uchun yozilgan konsertini aytib o'tish maqsadga muvofiq.

**Savol va topshiriqlar:**

1. Musiqiy asarlar ustida ishlashni nimalardan boshlash kerak?
2. Kompozitor Sayfi Jalil ijodi haqida o'rganganlaringizni gapirib bering.
3. Asarda g'ijjak cholg'usining imkoniyatlari mahorat bilan ochib berilishining sabablari nimada?
4. Konsert janri shakllanishi haqida nimalarni o'rgandingiz?

## 7- DARS. BIRINCHI QISM

**Ekspozitsiya** – sonata allegrosi shaklida, *do-diyez minor* tovush qatorida (tonalligida) yozilgan bo'lib, orkestrning shaxdam, energiyali kirish qismi bilan boshlanadi. Kirish qismidagi jadal xarakter yakkanavoz tomonidan ifodalanadigan asosiy partiyada ham saqlanib qoladi.

**Asosiy partiya** – forte dinamikasi bilan bayramona, mardona xarakterda, zavq bilan ijro etiladi.





Bunda qo'llangan martle shtrixining mohiyati kuyni jo'shqin va shaxdamligini oshiradi. Martle kamonni tordan ko'tarmay ijro etiladigan shtrixlar guruhiga kiradi va urg'u qo'yilgan detashe bo'lib, kamon shaxdam, tez tortiladi, keskin to'xtatiladi va o'zining cho'zimini teng yarmi hisobida pauza hosil qilinishi shart. Ammo bu yerda martle shtrixini biroz yumshoqroq ijro etish tavsiya etiladi. Ijrochining kamon orqali shaxdam harakatlari esa asosiy partiyaning xarakterini ifodalaydi. Asosiy partiya o'zbek xalq kuylariga yaqin qisqa motivlardan tuzilgan. Asosiy partiya uchun usulning aniqligi xarakterlidir. Bu vaziyatda sozanda o'tkir, jadal ovoz sadolantirishga erishmog'i lozim, ayni paytda qo'pol, ortiqcha harakatlarga yo'l qo'ymasligi kerak. So'ng qisqacha bog'lanish keladi. Bu bog'lanish yordamchi, ikkikchi darajali partiyaga (pobochnaya partiya) dinamik va xarakter tomondan tayyorlash vazifasini bajaradi. Sozanda forte dinamikasi bilan kamon orqali bajarayotgan shaxdam, jadal harakatni ovoz kuchini asta pasaytirib, yumshatib, detashe shtrixiga almashtirishi kerak.

**Ikkinchi darajali partiya** – (Pobochnaya) kuychan xarakterda, yakkanavoz tomonidan ifoda etiladi. Bu mavzuni (temani) ro'yobga chiqishi uchun yakkanavoz ijrochi kamonda legato shtrixi bilan yaxshi, kuychan tovush sadolantirib, intonatsiya tozaligiga erishishi lozim. Kuyning yumshoq, tekis va nafisligi xuddi insonning chiroyli nafas bilan kuylayotganini eslatmog'i kerak.






Mavzuni o'zbek xalq kuylari bilan uzviy bog'liqligi sinkopalashgan usuldagi melizm bezaklarida yaqqol ko'rinadi. Shunga ham alohida etibor berish kerakki, ikkinchi darajali partiya ijrosida qochirimlarni har birini shoshmasdan, aniq, kuylab ijro etish zarur.

**Rivojlanish** – (Razrabotka) bo'limida katta intilish bilan dinamikaning o'sib borishi asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Kompozitor asosiy mavzu motivini birinchi oktava *do-diyez, fa-diyez* va ikkinchi oktava *fa-diyez, do-diyez* notalaridan o'zgartirilgan ko'rinishda navbatma-navbat tarzda qo'llagan. Motivlarning kvarta oralig'i intonatsiyasida qaytarilishi rivojlanishning ichki turtkisi (impuls) bo'lib xizmat qiladi.



Shu yo'sinda asosiy mavzu rivojlanib, katta dinamik ko'tarilish bilan avj lavhasiga (kulminatsiya) yaqinlashiladi. Avj lavhasida asosiy usul yakkanavozda ham orkestr ijrosida shiddat bilan yangraydi. Taktdagi birinchi, to'rtinchi, yettinchi urg'u bilan chalinadigan sakkiztaliklar qo'sh notalar ( sekundali) bilan ijro etiladi. Bu yerda sozanda forte dinamikasi bilan mohirona chalishga erishishi lozim. Avj lavhasi susayib, tugash parchasida ikkinchi darajali partiyaning ohanglari paydo bo'ladi. Asta-sekin asar bo'limining dinamik tamonlari va sur'atini tayorlagan holda kadensiya parchasining ijrosiga yetib kelinadi.

**Kadensiya** – konsertning muhim bo'limi hisoblanadi. Ijro zerikarli bo'lib qolmasligi uchun sozanda kadensiyaning dramaturgiyasini sinchiklab ko'rib chiqishi va uni mantiqan mulohazali talqin qilishi lozim. Kadensiya parchasini jumlalarga ajratish (frazirovka), ya'ni farqlash, yaxshilab o'ylab ishlatiladigan dinamik ishoralar, shuningdek, sozandaning o'zidan qo'shib, erkin tarzda ijro etish sifati (improvizatsiya) kadensiyaning muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlaydi.

Dastlabki ikki taktni forte nyuansida kamonni erkin, keng tarzda harakatlantirib, detashe va legato shtrixlarini qo'llab boshlash kerak, uchinchi bilan to'rtinchi taktlarda asta-sekin ovozni pasaytirish lozim. Beshinchi taktda yarimtalik sekstali qo'sh notalar kvarta hamohangligi tovushlariga yechiladi. Bu tovushlarni toza, tiniq, noziklik bilan ijro etish zarur. Oltinchi, sakkizinchi taktlarda asosiy partiyaning elementlari uchraydi va ularni to'liq, keng ovoz bilan ijro etiladi. Yettinchi va to'qqizinchi taktlar asosiy temaning motiviga qarama- qarshi (kontrast) xarakterda, aks-sado (exo) bo'lib eshitilishi kerak. Bu yerda ham huddi beshinchi taktdagidek qo'sh notalar va ularning yechilishi kamonni tekis, asta harakatlantirib, piano nyuansida ijro etiladi. O'ninchi taktdan boshlab, to repriza bo'limigacha asta-sekin dinamik ko'tarilish va sur'atni tezlashtirish boshlanadi.




**Repriza** – sezilarli tarzda qisqartirilgan. Bu yerda asosiy partiyaning mavzusi o'n oltitalik notalar bilan berilgan. Yakkanavozning asosiy maqsadi tezkorlik, mohirona ijrodan iborat.






16484

Birinchi qismni ijro etishda sozanda shaklning yaxlitligiga erishmog'i lozim.
**Savol va topshiriqlar:**
1. Birinchi qismni shaklan tahlili bo'yicha gapirib bering.
2. Mavzularni alohida ajratib, nomlarini ayting, ijro eting va kuylang.
3. Kadensiya parchasini ijro etilishi haqida ma'lumot bering.

## 8- DARS.

**Ikkinchi qism** – Andante – sodda uch qismli shaklda tuzilgan bo'lib, lirik xarakterda yozilgan. Bu qism kompozitor tomonidan «G'azal» deb nomlangan. «So'zsiz qo'shiq» desak maqsadga muvofiq bo'ladi. Orkestrning chiroyli, yumshoq kirish qismidan so'ng tabiiy tovush qator elementlarini o'zida mujassam etgan, ajoyib mavzu yakkanavoz sozanda tomonidan taqdim etiladi.




Bu kuyda to'g'ridan-to'g'ri o'zbek ashulalariga o'xshashlik bo'lmasa-da, ammo uning birinchi tovushlaridan boshlab sokin, kuychan o'zbek qo'shiqlari yodga keladi. Mavzu juda sodda va ma'noli bo'lib, o'zbekona bezalgan. Asosan, qochirimlar (forshlag) ishlatilgan va shu bilan muallif kuyni bezay olgan. Yakkanavoz sozandaning partiyasi ijro etilganidan so'ng, orkestr dinamik o'sish bilan avj parchasiga yetib keladi. Mana shu ikkinchi qismning dinamik jihatdan eng yuqori, avj (kulminatsion) lavhasi. O'rta qismda yakkanavoz sozanda piano nyuansida, orkestr ijrosiga qarama-qarshi (kontrast) xarakterda o'ychanlik bilan dardli ohangda ijrosini davom ettirishi lozim.




Kuy yo‘nalishining uzviy bog‘liqligi, bir ritmik xona boshqasi bilan almashishidagi talab qilinadigan silliq o‘tishlar mavzu davomida rivojlanib boradi. Uchraydigan qo‘sh notalar kamonni tekis, to‘liq harakatlantirib, detashe shtrixi bilan, forte nyuansida ijro etiladi.

Boshlang‘ich mavzu qaytarilishida g‘ijjakning yuqori registri qo‘llangan.



Sozandadan yuqori registrda chiroyli vibratsiya ko'nikmasini ishlatib, toza, tiniq intonatsiya bilan kamonni ortiqcha bosmasdan ijro etish talab qilinadi. Ikkinchi qismning lirikasiga uchinchi qismning xarakteri qarama-qarshi qo'yilgan.

**Savol va topshiriqlar:**

1. Ikkinchi qism shaklini tahlil qiling.
2. Mazkur qism qanday xarakterda va uning nomi qanday?
3. Ikkikchi qismning o'rta lavhasida sozandaga qanday vazifalar yuklangan?

## 9- DARS.

**Uchinchi qism** ham sodda uch qismli shaklda yozilgan. Uchinchi qism boy usullar bilan bezatilgan. Bu qismda o'zbek folklor musiqa san'atida uchraydigan Samarqand beshqarsak usullarini ustalik bilan qo'llanganini uchratamiz. Usul o'rinli tarzda besh hissali o'lchovda (5/8) berilgan. Urg'u (aksent) taktning birinchi va uchinchi hissalariga to'g'ri keladi. Orkestr ijrosida to'rt taktli kirish qismi (usul) ijro etilganidan so'ng, yangi, original mavzuni yakkanavoz sozanda ifodalaydi.




Mavzuda legato, stakkato, spikkato shtrixlari o'z navbati bilan o'rinli tarzda qo'llangan. Umuman sozanda qo'llanilgan ijro ko'nikmalarini birlashtirib, kuyni yengil, erkin tarzda ifodalashi kerak. Shundan so'ng mavzu oktava baland ijro etiladi. Bunda qo'sh notalar, passajlar uchraydi. Oddiy bo'lmagan besh hissali usulda qo'sh notalarni intonatsion toza, tiniq chalish, passajlarni talab qilinayotgan sur'atda aniq ijro etish yakkanavoz sozandaning oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Tabiiyki, buning uchun yakkanavoz sozanda ijrochilik texnikasi bo'yicha juda yaxshi tayyorlangan bo'lib, bu murakkab ijro uslublarini yuqori darajada o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Shu o'rinda gammalar ijro etilishidagi mashqlar, qo'sh notalarni o'rganishdagi ko'rsatmalardan foydalanish shart va ular juda katta foyda beradi. O'rta qismning mavzusi lirik xarakterda tuzilgan bo'lib, turli pardalarda aytaylik, qisqa passajlar ko'magida ulanib rivojlanadi. O'n oltitalik notali passajlar legato va spikkato shtrixlari bilan ifodalanadi, ularni yengil va jozibali qilib ijro etish lozim.






Reprizada asosiy mavzu qaytariladi va kodaga yaqinlashiladi. Kuyning dinamikasi har qadamda o‘sib boradi. Kodani mohirlik bilan kamonni jadal harakatlantirib ijro etish maqsadga muvofiq. Bu borada sozanda charchab qolmasligi uchun dinamik imkoniyatlarini tejab qo‘llashi lozim. Chunki uchinchi qismning, umuman asarning tugashi baland ovozda bo‘lishi ijrochi oldiga qo‘yilgan muhim talablardan hisoblanadi.








Uchinchi qism o'zining jo'shqin xarakteri, usullar energiyasi va chiroyli ohanglari bilan katta taassurot qoldiradi.

Konsert ustalik bilan cholg'ulashtirilgan, orkestr hech qayerda yakkanavoz sozandani bosib ketmaydi va orkestr bilan musobaqalashishda g'ijjak o'zining go'zal ovozi, xilma-xil iimkoniyatlari bilan munosib o'rnini topgan. Sayfi Jalilning uslubiy yo'nalishini tushunish, texnik mahorati to'g'risida chuqurroq bilish uchun sozanda uning turli janr va shakldagi asarlari bilan yaqindan tanishib, o'rganishi maqsadga muvofiq.

**Savol va topshiriqlar:**

1. Uchinchi qism qanday shaklda tuzilgan va uni tahlil qilib bering.
2. Kuy davomida shtrixlarning qo'llanishi qanday?
3. Mavzularni alohida kuylab, chalib berishni mashq qiling.

**G'ijjak va o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun**

# KONSERT

Sayfi Jalil.
G'ijjak matni Murod Toshmuhamedov
tahriri ostida

## I QISM




sff
sff


p
mf
p
mf
legato


p
p
ff
mf








Cadenza
Moderato ad libitum
poco accelerando


ff
sf
p
8va
(8)



## II QISM

Andante






Meno mosso


mf
p
poco più mosso
sf
sff
ff


rit.




### III QISM




mf
ff
f


pizz.
arco




pizz.
sf
arco
f
p


cresc.


8va
sff
sff

## 10- DARS. AN'ANAVIY IJROCHILIK

An'anaviy ijrochilikda ham postanovka, ya'ni ijro paytida sozanda cholg'uni to'g'ri ushlab harakat qilishi muhim ahamiyatga ega. Chap qo'lning tirsagi g'ijjakning kosasiga tayanch bo'lishi maqsadida qo'yiladi. Shunda chap qo'lning barmoqlari cholg'u dastasida erkin harakat qila oladi. Chap qo'l barmoqlari g'ijjak dastasiga biroz yoni bilan bosiladi, xuddi quyidagi rasmda ko'rsatilganidek.



O'ng qo'l bilan kamon an'anaviy ijrochilikka mos tarzda ushlab harakatlantiriladi. O'ng *qo'lning ko'rsatgich barmog'ini kamonning yog'och qismiga, boshmaldoqni esa kolodka, ya'ni* kamonning yollarini (qillari) birlashtirib turuvchi qismiga qo'yib ushlanadi. O'rta va nomsiz barmoqlar yordamida sozanda kamonning yollarini o'zi tomonga tortib ushlaydi. Bu esa o'z o'rnida ijroning dinamikasini boshqarishda juda qo'l keladi, ya'ni baland ovozda ijro etish lozim bo'lsa, o'rta va nomsiz barmoqlar kamonning yollarini qattiqroq tortib, past ovozda ijro etish kerak bo'lsa, kuch bilan tortmasdan, sekin harakat qilinadi.



**Savol va topshiriqlar:**

1. An'anaviy ijrochilik postanovkasida chap qo'l faoliyati qandayligini ko'rsatib, tushuntirib bering.
2. O'ng qo'l harakatini izohlab, amalda ko'rsatib bering.

## 11- DARS. O'ZBEK MILLIY KUYLARINI O'ZLASHTIRISH

O'zbek an'anaviy musiqa ijrochiligini o'zlashtirish talabalar qalbining tubidan chuqur o'rin olgan desak, hech adashmagan bo'lamiz. Chunki ona zaminimizda tug'ilib, o'sib, tarbiya topayotgan barcha farzandlarimiz ongida milliy qadriyatlarimiz, madaniyatimiz, san'atimizni e'zozlab o'rganish va jahonga yanada tanitish maqsadi jo'sh urmoqda. Talabalar o'zbek xalq cholg'ularining qaysi ixtisosligi bo'yicha shug'ullanishlaridan qat'iy nazar, milliy musiqa san'atini ilmiy-amaliy tarzda o'rganishga harakat qilmoqdalar.

O‘zbek milliy musiqasi o‘zining kuychanligi, nozikligi, chiroyli bezaklarga boyligi, tovush pardalarining (chorak va nimchorak pardalar) murakkabligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa nola o‘zbek musiqa ijrochiligida milliylikni namoyon etuvchi asosiy va zarur vositadir. G‘ijjak ijrochiligida nola chiroyli va juda ta’sirchan sadolanadi. Aynan nola o‘zbekona ruhda tovush sadolantirishda sozanda o‘zlashtirishi shart bo‘lgan juda muhim ko‘nikmadir. Nola o‘zbek kamonli cholg‘ulari ijrochiligidagi o‘ziga xos milliy vibrato. U Yevropa kamonli cholg‘ulari ijrochiligidagi vibratsiyadan mutlaqo farq qiladi. Barmoq g‘ijjak dastasi bo‘ylab tor ustida ma’lum bir tovushning ohang balandligini biroz ko‘tarib-pasaytirib asosiy va yuqori xarraklar tomon sirg‘altirib ketma-ket tebranma harakat qilishi natijasida nola hosil bo‘ladi. Nola harakatining davomliligi tovush cho‘zimliligiga qarab belgilanadi. Nola ko‘nikmasini o‘zlashtirish uchun harakatlarni albatta mashqlar natijasida mustahkamlash kerak. Bunda chap qo‘l barmoqlarining hammasi (1-,2-,3-, 4-) o‘z o‘rnida ishtirok etadi. Masalan, ochiq torlarda va ochiq torlardan keyingi birinchi hamda boshqa pardalarda birinchi barmoq tebranma harakatni amalga oshiradi. Ikkinchi barmoq bilan nola ijro etilishida 2- barmoq asosiy, 1- barmoq yordamchi, birlashgan, jips holda, uchinchi barmoq bilan nola ijro etilishida 3- asosiy, 2- yordamchi ba’zan 1- barmoq ham yordamchi, birlashgan, jips holatda harakat qiladi. To‘rtinchi barmoq ko‘proq tordan torga o‘tish hollarida ishtirok etadi. Shu o‘rinda aytib o‘tish o‘rinliki, o‘zbek milliy g‘ijjak ijrochiligida ustozlar g‘ijjakning sozlanishini uch qo‘l yoki to‘rt qo‘l deb yuritishgan. Buning boyisi shundaki, an’anaviy ijrochilikda g‘ijjakning torlari asosan kvarta, ya’ni to‘rt tovush oralig‘ida sozlanadi. Keyinchalik g‘ijjakning imkoniyatlari kengytirilishi natijasida xuddi skripka sozidek kvinta, ya’ni besh tovush oralig‘ida sozlanadigan bo‘ldi. G‘ijjak kvarta oralig‘ida sozlanganida tordan torga o‘tishlar uchinchi barmoq orqali, kvinta oralig‘ida sozlanganida esa to‘rtinchi barmoq orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun ustozlar g‘ijjakning sozlanishini uch qo‘l yoki to‘rt qo‘l deb yuritishgan.

**Savol va topshiriqlar:**

1. O‘zbek milliy musiqasi qanday xususiyatlari bilan ajralib turadi?
2. Nola ko‘nikmasi haqida tushuncha bering va amalda ko‘rsatib bering.
3. G‘ijjakning sozlanishi haqida ma’lumot bering.

## 12- DARS

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, o‘zbek milliy musiqasi o‘zining chiroyli, xushohang musiqa bezaklari bilan ajralib turadi. E’tiboringizga o‘zbek milliy kuylarini o‘rganishda va ijro etishda qo‘llanadigan bezaklar havola etiladi.

### FORSHLAG[3] VA UNING TURLARI

YUZAKI FORSHLAG[4] — (notada ichi bo‘yalmagan holda yoziladi) — ijro etilayotgan tovush sadosi uzilmasdan turib, barmoqni torga ohista sal tekkizish yo‘li bilan, ya’ni uni bosmasdan ijro etiladi.



QISQA FORSHLAG[5] — (chiziq tortilgan)
Musiqaning xarakteri va uslubiga binoan asosiy notani cho‘zish hisobiga ijro etiladi.

Yozilishi



Ijrosi



[3] **Forshlag** nemischa *vor — avval* va *shlag — urmoq* so‘zidan olingan. O‘zbek sozandachiligida **qochirim** deb ataladi.

[4] **Toshmuhamedov M.** «G‘ijjak taronalari». T.: G‘afur G‘ulom, 1983, 8-b.

[5] **Григорян А. Г.** «Начальная школа игры на скрипке». М,: Музгиз, 1961, 127-128-b.

QO'SH FORSHLAG[6] – keyingi asosiy notani cho'zish hisobiga ijro etiladi.

Yozilishi Ijrosi





TREL[7] – ikki yonma-yon (asosiy va ustki yordamchi) tovushlarni tezkorlik bilan navbatma-navbat ijro etishdir. O'zbek an'anaviy ijrochiligida trel ham ko'p qo'llanadi.

Yozilishi Ijrosi






GLISSANDO – ma'lum tovushdan boshqa tovushgacha barmoqni tordan ko'tarmay, sirg'altirib, uzmasdan ijro etish.




**Savol va topshiriqlar:**

1. Forshlag va uning turlari haqida ma'lumot bering.
2. Yana qanday bezaklarni o'rgandingiz?

## 13- DARS. NIMDIEZ VA NIMBEMOL

Butun dunyoda qabul qilingan yagona nota yozuvida tovushlar oralig'i yarim ton, ya'ni yarim parda tarzida qilib belgilangan. Ko'p sharq xalqlari qatori, o'zbek an'anaviy ijrochiligida yarim pardalar oralig'idagi tovushlar bevosita mustaqil o'rin tutadi. Shu bilan birga, milliy ijrochiligimizda keng qo'llaniladigan chorak pardalarni nota yozuvida belgilash uchun mavjud ♯ – diez va ♭ – bemol belgilaridan foydalanishimiz mumkin.

Diez belgisining o'ng tomondagi chiziqchasi yozilmaydi, odatdagidek, pastki va yuqoridagi chiziqlari qaysi notaga qarashli ekanligini bildiradi.

NIMDIEZ ‡ – xuddi diez belgisi kabi nota oldiga yoziladi va o'sha nota tovushi chorak ton, ya'ni chorak parda yuqori ohangda ijro etiladi.

NIMBEMOL ▸ – bemol belgisini ichi bo'yalgan holda yoziladi. Bu belgi ham qaysi nota oldiga yozilsa, o'sha nota tovushi chorak parda past ohangda ijro etiladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, g'ijjakning torlari kvarta yoki kvinta, ya'ni to'rt yo besh tovush pog'onalari oralig'ida sozlanadi. Tabiiyki, shunga qarab, g'ijjak dastasida chap qo'l barmoqlarining joylashishi har xil bo'ladi. Shuning uchun sozanda kuyiarni o'zlashtirishda va ijro etishda g'ijjakning u yoki bu sozlanishi bo'yicha hosil qilgan o'z ijro ko'nikmalariga tayanib, g'ijjak dastasida barmoqlar joylashishini erkin tanlashi mumkin.

**Savol va topshiriqlar:**

1. Nimdiez va nimbemol belgilari haqida qanday tushunchaga ega bo'ldingiz?
2. Bu belgilar bilan ifodalangan tovushlarni albatta aniq, toza kuylashni va chalishni mashq qiling.

---

[6] **Риман Х.** «Музыкальный словарь». М., 1896, 908-b.

[7] **Trel** italyancha *trillare* – *dirrilatish* so'zidan olingan.

## 14- DARS
### «Buzruk» maqomidan «Nasri Uzzol»

«Shashmaqom» o'zbek musiqa san'atidagi eng yirik, mumtoz, murakkab va mashhur, durdona asar. Nasri Uzzol «Shashmaqom» tarkibiga kiruvchi oltita maqomning (Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq) birinchi, bosh qismi, nomi ham shunga munosib Buzruk maqomining «Nasr», ya'ni ashula bo'limiga kiruvchi mashhur asar.

Ustoz xonanda Asqar Ergashev ijrosida Qahramon Nazirov tomonidan g'ijjak uchun moslab notaga ko'chirildi.

Albatta, maqom kuylarini ijro etish sozanda oldiga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Shu bois asarga juda jiddiylik bilan yondashish talab etiladi. Avvalo, kuy matnini qat'iy ravishda aniq o'rganib, keyin talqin (traktovka) qilish masalasi hal etilishi lozim. Boshlang'ich jumlalar asta, yumshoqlik bilan, keyingi jumla (daromad) to'liqroq ovoz bilan davom etadi va tugatilayotgan bo'lim jumlasi yana ohista, noziklik bilan yakunlanadi. Asarning o'rta qismidagi *fa diyez*dan boshlanadigan bo'lim piano nyuansida, xuddi kuy ichida yana bir kuy boshlanganidek munosabatda davom etadi. So'ng asta-sekin ovoz jonlana borib, *lya nimdiyez* bilan boshlanadigan jumla baralla ovoz bilan kamonni to'liq, keng tortib ijro etiladi. Albatta, uchrayotgan chorak pardalarga taalluqli ohanglar bajarilishi zarur.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, asarning mazkur lavhasida «Muhayyari Chorgoh» namudining so'zsiz ijro etiladigan hang parchasi uchraydi. Namud ko'proq maqom kuylarida ijro etiladigan o'zgarmaydigan parcha. Namudlarning turlari ko'p. Bulardan; «Namudi Iroq», «Namudi Bayot», «Namudi Uzzol», «Namudi Ushshoq» va h.k. Masalan, «Nasri Uzzol»dagi mazkur namud «Toshkent Irog'i» qo'shig'ining avj parchasidagi «Jahon afsonasi bo'ldim» jumlasidan keyingi keladigan so'zsiz (o o o o ....) xonish bir xil, o'zgarishsiz ijro etiladi va faqat nasr usulida kelishi bilan o'z o'rnini belgilaydi.

Demak, bu asar kelajakda sozanda o'rganadigan yanada murakkabroq maqom kuylari uchun ham zamin tayyorlaydi, yo'l ochadi.

**Savol va topshiriqlar:**

1. Asarni jumlalarga ajratib o'rganing.
2. Namud haqida nimalarni o'rgandingiz?

### NASRI UZZOL
(«Buzruk» maqomidan)

**Moderato ♩=80**

Q.Nazirov notalashtirgan




mf
p
mp
mf


p
mf


p
mf
tr
p
rit.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

**Каримов И.** «Гармонично развитое поколение, основа развития Узбекистана». Т., Sharq, 1998.

**Karimov I.** «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». T., Ma'naviyat, 2008.

**Rajabiy Yu.** «Shashmaqom» I tom. T., 1966.

**Риман Х.** «Музыкальный словарь». М., 1896.

**Григорян А.** «Начальная школа игры на скрипке». М., Музгиз, 1961.

**Григорян А.** «Гаммы и арпеджио». М., 1977.

**Раабен Л.** «Скрипка». М., 1963.

**Хашимов А.** «Скрипичные концерты композиторов Узбекистана и методика их исполнения». Т., «O'qituvchi», 1980.

**Toshmuhamedov M.** «G'ijjak taronalari». T., «G'afur G'ulom» 1983.

**Nazirov Q.** «Abduhoshim Ismoilov» T., «Ijod dunyosi», 2003.

**Dadamuhamedov A.** «Rubob-prima darsligi» T., 2004.

**Петросянц А.И.** «Инструментоведение». Т., «G'afur G'ulom» nashriyoti,1990.

**Toshmuxamedov M.** «G'ijjak darsligi» T,. «O'qituvchi», 1995.

**Nazirov Q.** «G'ijjakda o'zbek milliy kuylarini o'zlashtirish» T., «Musiqa», 2011.

**Abdurahimova F.** «Orkestr sinfi» T., «G'afur G'ulom» nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012.

**Nazirov Q.** «G'ijjak» T., «Musiqa», 2012.

## MUNDARIJA

Kirish ..... 3

G'ijjak sinfining shakllanishi ..... 4
G'ijjak sinfining talab va vazifalari ..... 5
Dastlabki mashg'ulot ..... 7
1-dars. Shtrixlar. Kamonni tordan ko'tarmay ijro etiladigan shtrixlar ..... 7
2-dars. Sakratib chalinadigan shtrixlar ..... 8
3-dars. Gammalar ustida ishlash ..... 10
4-dars. Applikaturani to'g'ri tanlash ..... 12
5-dars. Vibratsiya ..... 12
6-dars. Musiqiy asarlar ustida ishlash ..... 13
Konsert janrining shakllanishi ..... 13
7-dars. I qism ..... 14
8-dars. II qism ..... 18
9-dars. III qism ..... 20
Sayfi Jalil. G'ijjak va o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun Konsert ..... 23
10-dars. An'anaviy ijrochilik ..... 44
11-dars. O'zbek milliy kuylarini o'zlashtirish ..... 44
12-dars. Forshlag va uning turlari ..... 45
13-dars. Nimdiez va nimbemol ..... 46
14-dars. Buzruk maqomidan «Nasri Uzzol» ..... 47

Foydalanilgan adabiyotlar ..... 51

QAHRAMON NAZIROV

# G'IJJAK SINFI DARSLIGI

*Oliy musiqa ta'limi muassasalari uchun*

Muharrir *B.Ashurov*
Rassom *Fatxulla Komron*
Musahhih *Muzaffar Toshpo'latov*
Kompyuterda sahifalovchi *Baxtiyor Ashurov*

Bosishga ruxsat etildi 18.10.2013. Bichimi 60 x 84 $^1/_8$.
Shartli bosma tobog'i 6,5. Adadi 350 nusxa.

«KARRLO» MCHJ da chop etildi.
Toshkent, Farhod ko'chasi, 21.

ISBN 978-9943-307-56-8